

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA–QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI
«Landshaft dizayni va interyer» kafedrası

5150900 – «Dizayn» yo'nalishi bo'yicha
bakalavr diplom loyiha ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Savdo markazining interyer va landshaft dizayn yechimi.

Bitiruvchi: Yusupova Shoxsanam Botir qizi.

(imzo, F.I.SH.)

Rahbar: Fomenko N.N.

(imzo,F.I.SH.)

Konsultant:

(imzo, F.I.SH.)

Toshkent – 2015

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

Arxitektura fakulteti Dizayn 5150900 yo'nalishi

2-11 Du guruhi

«TASDIQLAYMAN»
«Landshaft dizayni va interyeri»
kafedra mudiri: Vetlugina A
«___» 2015yil

Diplom ishi bo'yicha

T O P S H I R I Q

BITIRUVCHI _____

(F.I.SH.)

1. Diplom ishi mavzusi: _____

«___» _____ yildagi № _____ buyruq bilan tasdiqlangan

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar

3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

a) Arxitektura qismi _____

b) Badiiy-dizayn qismi _____

v) Atrof- muhit ekologiyasi qismi _____

g) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati _____

4. Grafik material ro'yxati (majburiy chizmalar va masshab ko'rsatilishi bilan)

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha konsultantlar

№	Diplom loyihasi qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining famiyasi
1.	Arxitektura				Sayfuddinov S
2.	Badiiy-dizayn				
3.	Atrof muhit ekologiyasi				Mirkomilov I.M

6. Topshiriq berilgan sana «__» _____ 2015

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi «__» _____ 2015

Diplom loyihasi rahbari _____

Kafedra mudiri Vetlugina A.V

MUNDARIJA

bet:

1. Kirish.....
2. Arxitektura qismi.....
3. Badiiy-dizayn.....
4. Atrof muhit ekologiyasi.....
5. Foydalanilgan adabiyotlar.....
6. Ilova.....

KIRISH

Xalqimiz har yili Mustaqillik bayramini ulkan yutuqlar, muvaffaqiyatlar bilan kutib oladi. Eng ulugʻ, eng aziz ayyomga munosib tuhfa hozirlash, yurtimizni yanada obod va farovon etish maqsadida keng koʻlamli bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi.

Bu yil ham ulugʻ bayramimiz arafasida mamlakatimizning barcha hududlarida yangi sanoat korxonalari, taʼlim va tibbiyot muassasalari, sanʼat va sport koshonalari, turar joylar, yoʻllar, koʻpriklar qurib bitkazildi. Xalqimizga xos ezgu anʼanalarga muvofiq bu inshootlar xosiyatli va xayrli kunlarda – Mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilmoqda.

Jizzax shaxrida ham koʻpkina oʻzgarishlr yuz berdi. Prezidentimiz rahnamoligida bu yerda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi va bu boradagi ishlar izchil davom etmoqda. Shahar oʻzining tarixiy jozibasini saqlagan holda yangilanib, zamonaviy qiyofaga ega boʻlmoqda, uzoqni oʻylab tuzilgan reja asosida muttasil rivojlanib bormoqda.

Mustaqillik sharofati bilan prezidentimiz raxnamoligida koʻplab xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi. Bu esa yanada rivojlanishimizga turtki boʻladi, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Bugungi kunda tijoratdagi muvaffaqiyat biznes yutugʻi bilan oʻlchanadi. Lekin, boshqa tarafdin, tizimli savdo boshqaruvida, tijorat va marketing boʻlimi oʻrtasidagi samarali aloqalarni yoʻlga qoʻyish va eng zarur sotish kanallarini qidirib toppish tizimli menejer yondashuvisiz amalga oshirilishi qiyin hisoblanadi.

MBA professionalning “Savdo-sotiq” yoʻnalishidagi dasturi bir tomondan biznes yuritishning vakolatlarini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tarafdin, atrategik jihatdan muhim funksional masalasiga shoʻngʻishga imkon beradi, tashkilotning tijoriy faoliyati boshqaruvi, savdo tizimini ishlab chiqish, “old qator” samaradorli boʻlimlarini yaratish sohasida eng yirik amaloyotchilarni qarab chiqadi.

Tarixiy manbalarning xabar berishicha, buyuk Sohibqiron saltanatida doimiy ravishda iqtisodiy islohotlar o'tkazilgan. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga, xalqaro iqtisodiy aloqalar shakllanishiga va rivojiga muhim ta'sir ko'rsatganligini nafaqat o'zimizning tarixchi olimlarimiz, balki xorijlik mutaxassislar ham haqli ravishda e'tirof etishgan.

Amir Temur xalqning boyishi davlat xazinasining ko'payishiga, xazinaning to'lishi harbiy qo'shinning jangovarligiga, bu esa davlat daxlsizligiga sabab bo'ladi degan maqsadga tayangan. Uning fikricha, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga, bu esa, sipohning tarqalib ketishiga, qo'shinning zaiflashishi, o'z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi.

Amir Temur davrida xalqaro savdo-sotiq aloqalari rivojlantirilib, tadbirkorlikka - katta imkoniyatlar yaratildi. Uning ko'pgina Sharq va G'arb davlatlari hukmdorlariga bitgan maktublarida ham, avvalo, xalqaro savdo-sotiq va tadbirkorlarga katta imtiyozlar berish, davlat taraqqiyotiga aynan tadbirkorlar katta ta'sir ko'rsatishi alohida ta'kidlangan.

Amir Temur Yevropa hukmdorlariga «Siz savdogarlaringizni biz tomonlarga yuborsangiz, toki biz ularni qizg'in, barcha izzatlarini o'rniga qo'yib kutib olaylik. Bizning savdogarlarimiz Siz tomonlarga borsalar va ularga ham shunday izzat-ikromlar ko'rsatsalar. Mayli ular hech qanday xavf-xatarsiz, to'siqsiz yo'l yursinlar. Dunyoni savdogarlar farovon qiladilar, degan naqlni inkor etish befoyda», degan mazmundagi xatlarni yuborgan.

Amir Temur Buyuk ipak yo'lini mustahkamlash orqali o'z davlati va qo'shni davlatlarning mudofaa va xavfsizligini ta'minlash maqsadlarini amalga oshirishga ham harakat qilgan. Uning zamonida davlatlarning tutash mintaqalarida yirik bojxona postlari barpo qilindi. Bulardan biri, ya'ni Darband bojxonasi Kavkaz tog' tizmalarining Kaspiy dengiziga tutashgan yerida joylashgan edi. Ikkinchisi ham shu nom bilan atalib, Samarqand bilan Balx o'rtasida, Shahrisabzdan ikki kunlik

masofada barpo etilgan. Ana shu bojxonalar markaziy xazinani har yili juda katta miqdorda mablag‘ bilan ta‘minlar edi.

Shularni inobotga olib O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng xalqaro savdo sotiqqa va qishloq xo‘jaligiga katta e‘tibor berdi. Rivojlangan davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishdi.

– O‘zbekistonda barcha sohalar qatori qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati ham izchil rivojlanmoqda.

O‘zbekistonda meva-sabzavot eksportini ko‘paytirish uchun loyihalar amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda kelasi to‘rt yil davomida qishloq xo‘jalik maxsulotlarini qayta tiklash va eksport qilishni ko‘paytirish maqsadida 391 sarmoyaviy loyixa amalga oshiriladi.

O‘zbekiston nashlarining xabar berishicha, loyihalar doirasida 1 million 300 ming tonna maxsulotni saqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan 2 mingdan ortiq muzxona barpo etiladi. Bir vaqtning o‘zida logistika tarmog‘i ham rivojlantiriladi.

O‘zbekiston xukumatining bildirishicha, 2015-2019 yilga mo‘ljallangan mazkur loyihani amalga oshirish ortidan mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustaxkamlanadi va eksport miqdori ko‘payadi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar xorijliklarning hamkorlikka qiziqishini oshirmoqda.

– Serquyosh O‘zbekistonda yetishtiriladigan meva-sabzavotlar shirinligi, ekologik sofliigi va rang-barangligi bilan shuhrat qozongan. Dunyo mutaxassislari o‘lkanmizdagi meva yetishtirish usullari bilan qiziqadi.

Yana ularda shunday naql borki biror mamlakat haqida bilmoqchi bo‘lsang, uning bozorlarini borib ko‘r, deyishadi. O‘zbekistonning to‘kin bozorlari mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining yorqin ko‘zgusidir.

Kuni kecha Toshkentda o'tajak xalqaro konferensiya O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari, zaxira va salohiyati bilan yanada yaqinroq tanishish, jahon oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni jalb etish, infratuzilma va logistika tizimlarini takomillashtirish, sarmoyadorlar bilan hamkorlik o'rnatish, fikr va tajriba almashishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunning g'oyat dolzarb masalasiga bag'ishlangan konferensiya tashabbuskori Prezident Islom Karimovga minnatdorlik bildiramiz.

ARXITEKTURA

BO'LIMI

Konsultant: : Sayfuddinov S
(F.I.SH., imzo)

Ma'sul rahbar: : Vetlugina A
(F.I.SH., imzo)

Bitiruvchi: Yusupova Sh.B
(F.I.SH., imzo)

ARXITEKTURA BO'LIMI

“Xalqaro savdo markazi” Jizzax shaxrida markaziy bozordan 600-700 m uzoqlikda joylashgan. Eski mahalla o'rnida.



Men diplom mavzuyimga aynan “Savdo markazi”ni olishdan maqsad, mamlakatimiz rivojlangan davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishish, O'zbekistonda barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati ham izchil rivojlantirish va O'zbekistonda meva-sabzavot eksportini ko'paytirish uchun loyihalar amalga oshirishdir.

“Jizzax shaxridagi xalqaro savdo markazi” ni loyihalashda quyidagi “Qurilish me'yorlari va qoidalari” hujjatlariga asoslanib ishlab chiqilgan:

1. KMK 2-08. 02-09. “Jamoat binolari va inshootlari”
2. KMK 2-03. 10-95. “Tomlar va tomqoplamalar”
3. KMK 2.01.03-96. “Zilzilaviy hududlarda qurilish”
4. KMK 2. 07. 01-94 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy , geologik ma'lumotlar”



KONSTRUKTIV YECHIMI

Har bir loyihalalanayotgan bino konstruktiv yechimga ega bo'lishi kerak. Bino mustaxkamligi va chidamliligi konstruktiv yechimga bog'liq. Bino konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- Funktsional talab – bino qaysi jarayonga mo'ljallangan bo'lsa, shu jarayonning talablariga to'la javob berishi kerak;
- Texnik talablar – mustaxkamlik talablariga to'la javob berishi kerak. bunda loyihaaning to'g'ri tanlangani, atmosfera ta'siriga chidamliligi va seysmik talabga to'liq javob berishi kerak;
- Arxitekturaviy-badiiy talab – binoning ichki va tashqi ko'rinishi barcha talabga javob berishi kerak.

Binoning konstruktiv elementlari: poydevor, devor, zinalar, parda devorlar, eshik va derazalar, ustunlar va h.k. “Xalqaro savdo markazi” loyihasi taklif qilinayotgan hudud, eng avvalo, konstruktiv jihatdan o'rganib chiqildi.

- Qurilish hududi – Jizzax shaxri
- Iqlimi – keskin kontinental
- Hududning zilzila bardoshligi – 7 ball

Bino konstruktiv jihatdan mustahkamlik darajasi bo'yicha karkasli va temir betondan bo'lsa, to'liq ravishda talabga javob beradi. Savdo markazi binosida hamkarkasli, ham temir beton konstruksiyasidan foydalanildi. Kompleks loyihasini konstruksiyalashda KMK me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda rejalashtirildi. Eng avvalo, asos grundi o'rganib chiqildi, geodezik olimlar tomonidan hudud ko'rib chiqildi. Asos tuprog'i laboratoriyada o'rganiladi. Zamin gruntining yuk ko'taruvchanligi, seysmik jihatdan mustahkamligi hisoblandi.

Poydevor yer osti qismiga bog'langan bo'lib, u barcha tushadigan og'irlikni qabul qilib, asosga uzatadi. Asos esa yerga tarqatadi. Poydevor ostida joylashib, binoning og'irligini o'ziga qabul qiluvchi tuproqning massasiga asos deb ataladi. Asoslar 2 xil bo'ladi: tabiiy asos va sun'iy asos. Bu loyiha ishi tabiiy asosga egadir. Tabiiy asos deb, qurilgan binoning og'irligini o'zining tabiiy holatida ko'tarib tura olishi mumkin bo'lgan poydevor osti tuprog'iga aytiladi.

Asosiy konstruksiya temir-beton karkas va g'ishtdan. Temir beton konstruksiyasi ichki chizmalarga asosan qilingan. Eng yuqori binosi yerto'la qavati bilan 3 qavatni tashkil etib, har bir qavat deformatsiya choklari bilan bo'lingan. Binoning yuk ko'taruvchi ustunlari (kollona) monolit temir-betondan loyihalangan. Bino poydevori yuk ko'taruvchi g'ishtli devor tagida B20 (M250) sinfiga oid portlandsementda tayyorlangan o'zaro kesishgan monolit temir-beton lentasimon, ustunlar osti esa ustunsimon qilib loyihalangan. Rigellar (ustunlar) monolit temir-betondan tayyorlanga bo'lib, kesimlari to'g'ri to'rtburchak shaklida 400x500 mm. qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi. Qavatlar aro yopmalar esa monolitdan, bog'lovchi tp'sinlar ham qurilish maydonida temir-betonlardan monolit usulda o'rnatiladi. Restaran va choyxonaning umumiy balandligi – 11.60m bo'lib, bunda choyxona – 4.6 m, restaran – 7 m ni tashkil etadi.

Devorlar binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, ular tashqi muhitdan himoyalashdan tashqari o'ziga tushadigan yukni qabul qilib poydevorga uzatuvchi

qurilma hisoblanadi. Tashqi devorga qo'yiladigan talablar: qor va yog'ingarchilik ta'siriga cidamliligi, shamol tezligiga ta'siri, quyosh radiatsiyaga bardoshliligi, temperature ta'siri, seysmik ta'sir va boshqalar. Devorlar asosan materialiga qarab paxsadan, g'ishtdan, yog'ochdan, betondan tayyorlanadi. Devorlar 3 turga bo'linadi: yuk ko'taruvchi, o'zini- o'zi ko'tarib turuvchi va osma devorlar. Mahalla guzari binosida asosan yuk ko'taruvchi devor qo'llanilgan.

Tashqi devor panellarining konstruksiyasi bi va uch qatlamli bo'lishi mumkin. Bir qatlamli panellar, odatda, keramzit beton yoki yengil betonlarning boshqa turlaridan tayyorlanadi. Uch qatlamli panellarning ikkita chetki qatlami temir-betondan ishlanib, o'rta qatlami mineral paxta, k'pik beton singari issiq-sovuqni o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Uch qatlamli panellar ichkariga qaragan temir-beton qatlami yuk ko'taruvchi qatlam hisoblanadi. Uning qalinligi hisob bilan belgilanib, zilzila kuchi 7 -8 ballgacha mo'ljallangan hududlar uchun 8sm va 9 balli hududlar uchun 10 smdan kam bo'lmasligi lozim.

Demak bizning hudud 8 balli bo'lsa ham, yuk ko'taruvchi qatlam qalinligini 10 sm qilib oldik. Bu bino devorining mustahkamligini oshiradi. Tashqi devorlarni loyihalayotganda iqlimdan kelib chiqib, deformatsiya choklari qo'yiladi. Deformatsiya choklari ham 3 turga bo'linadi: temperature, cho'kish va zilzilaga qarshi choklar. Loyihalangan bino tashqi devorlarida temperatura choki qo'yilgan bo'lib, bu chok qalinligi 25 mm qilib olingan. Chok poydevorgacha keladi va harorat o'zgarganda devordagi turli xil yoriqlar oldini olish uchun qo'llanilgan. Ichki devorlar ham bir qator vazifalarni bajaradi. Xonalarni ajratish bilan birga tovush o'tkazmaslik ham muhim vazifa. Ichki devorlar bir qatlamli qilib ishlangan bo'lib, panel qalinligi 12 sm qilib olingan.

Parda devorlar ichki devor guruhlarini tarkibiga kirib, ko'ndalang va bo'ylama yo'nalishda joylashishi mumkin. Me'yoriy hujjatlarga asosan bir xonadan ikkinchi xona o'rtasidagi parda devorlarning tovush o'tkazmaslik hususiyati 0dB ga teng, xonalar orasida 9dB bo'lishi kerak. (dB – tovush bosimining o'lchov birligi)

Insonning tovush bosimi to'liqlarini qabul qilish qobiliyati 0 bilan 12 dB oralig'ida yotadi.

Parda devorning massasi oshgan sari tovush o'tkazmaslik xususiyati ham ortib boradi. Tovush energiyasi zichliklari har xil bo'lgan ko'p qatlamli parda devorlardan o'tganda o'z kuchini yo'qotadi. Agar qatamlar orasida bo'shliq ko'zda tutilsa, bunday parda devorlar tovush o'tkazmaydi. Binoning turiga qarab parda devorlar o'tga chidamli yoki yonmaydigan bo'lishi kerak.

G'ishtli binolarni sesymik mustahkamligini oshirish uchun bir qancha tadbirlar o'tkaziladi: 1- seysmik kamarlar ishlatiladi, seysmik kamar balandligi minimum 15 sm. Eni asosan devor eniga bog'liq, agar devor 2 yoki undan ortiq g'isht bo'lsa, kamar eni devor enidan kichikroq bo'lishi mumkin.

Savdo markazining pastki qismida yerto'la mavjud. Yer to'la poldan balandligi – 3.60 m ni tashkil etadi. Har bir qavat orasida qavatlar aro yopmalardan foydalanilgan. Qavatlar aro yopmalar – binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, uni balandligi bo'yicha qavatlariga ajratib turadi. Qavatlar aro yopmalarga qo'yiladigan talablar:

- Mustahkamlik;
- Doimiy va vaqtinchalik yuklar ta'siriga chidamlilik;
- Tovush o'tkazmaslik;
- Suv va bug'lar o'tkazmaslik;
- O'tga chidamlilik va boshqa talablar.

POYDEVORLAR

Poydevorlar – yer osti konstruksiyalari bo'lib, o'zidan yuqorida turgan konstruksiyalar og'irliklarini qabul qilib, gruntlarga uzatib beruvchi konstruksiyalardir. Poydevorga yuqoridan devor va ustunlarning xususiy og'irligi, pastdan esa zaminning teskari bosimi ta'sir etadi.

Inshoot zamini deganda yuqoridan tushayotgan yukni qabul qiladigan hamda shu yuk ta'sirida kuchlanish va deformatsiya holatida bo'ladigan grunt massasi tushuniladi. Zamin qancha kam va tekis deformatsiyalansa, uning qurilish sifatlari shuncha yuqori bo'ladi; inshootda qo'shimcha kuchlanishlar shuncha kam hosil bo'ladi.

Inshoot va gruntga mos poydevor tanlash loyihalashtirishning muhim masalalaridan biridir. Zamin va poydevorlarning bir necha variantini texnik iqtisodiy analiz qilish yo'li bilan uning ishchi varianti qabul qilinadi. Poydevorlar yetarli darajada mustahkam, puxta, sovuqqa va yer osti suvlarining agressiv ta'siriga chidamli bo'lishi kerak. Poydevorlarning tarxdagi o'lchamlari shunday olinishi kerakki, yuqoridan tushayotgan hisobiy yuklar ta'sirida poydevor ostki sirtida hosil bo'ladigan o'rtacha bosim, gruntga beriladigan bosimdan ortib ketmasin; poydevorning cho'kishi normada ko'rsatilgan darajada bo'lishi kerak.

Har qanday poydevor loyihasida ikkita xarakterli tekislik bo'ladi, inshoot tayanuvchi ustki sirt (ustki tekislik) hamda grunt bilan tutashib turuvchi ostki sirt (ostki tekislik). Poydevorlar chuqurligi, yuk ta'sirida ishlash xarakteri, konstruktiv shakli, materiali, vazifasi hamda ishlanish uslubiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Chuqurligiga ko'ra sayoz va chuqur poydevorlar bo'ladi. Loyiha shakliga ko'ra alohida, yaxlit lentasimon, massiv, aralash va qoziqli poydevorlar bo'ladi.

Rekonstruksiya qilinayotgan ushbu inshootning poydevori ham yaxlit lentasimon poydevor bo'lib, o'ta mustahkam.

DERAZA VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Xona ichiga tabiiy yorug'lik devordagi vertikal – tomlardagi gorizantal joylashgan derazalar orqali tushadi. Derazalar qurilish normalariga asosan ishlab chiqiladi. Deraza materiali yog'och, temir – beton, plastic va alyumindan bo'lishi mumkin. Derazalar ochilish usuliga qarab ham bir necha turlarga bo'linadi:

- 1 tabaqali
- 2 tabaqali
- 3 tabaqali

- Surilib ochiladigan
- Tabaqalar yuqori va pastga ilingan
- Jalyuzali

Xozirgi zamonaviy arxitekturada derazalardan o'zgacha usulda qo'llanilmoqda. Loyihadagi mexmonxona va restaranda derazalar juda chiroyli ishlangan. Materiali plastikdan bo'lib, o'zgacha shakl berilgan.

POL VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Bino loyihalalayotganda pol va ularning konstruktiv yechimi ham ko'rib chiqilgan. Pollar to'g'ridan -to'g'ri oraliq yopmalar ustidan, podvalsiz binolarimizda esa to'g'ridan- to'g'ri grunt ustidan pollar tayyorlanadi. Pollarning yuzasi qoplama yoki haqiqiy pol deyiladi. Pollarning turlari ham ko'p: yog'och taxtali pollar, lenolium pollar, keramik pollar, mozaykali pollar va boshqalar.

Agar bino podvalsiz bo'lsa, u holda o'lchami 25x25 sm bo'lgan tumbalar ustiga lagalar qo'yib qoqib chiqiladi. Taxta pollar shpuntlarining shakli to'rtburchak, doira yoki trapetsiya shaklida bo'lishi mumkin. Loyihadagi bino xonalarida to'rtburchak shaklidagi taxta pol shpuntlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yog'och taxta pollar ustidan esa, devor konstruksiyasi bilan birikkan joyida esa plintuslar ishlatiladi.

ZINALAR

Zinalar qavatlar orasidagi aloqani amalga oshirishga hizmat qiluvchi asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalardandir. Bundan tashqari zinalar tabiiy ofat, yong'in va avariya vaqtida kishilarni binodan tez evakuatsiya qilish hizmatini bajarishi kerak. Zinalar vazifasiga qarab quyidagi hillarga bo'linadi:

- Asosiy va yordamchi zinalar, qavatlar orasida kishilarning kundalik ommaviy qatnovi va binodan tashqariga chiqish uchun hizmat qiladigan zinalar.

- Yordamchi zinalar – o't o'chirishda, avariya vaqtida foydalaniladigan, chordoqqa chiqish va yerto'laga tushish uchun xizmat qiladigan zinalar kiradi.

Zinalar qiya joylashgan marshlar, gorizantal supachalar va harakat xavfsizligini ta'minlovchi tutqichlardan iboratdir. Zina devorlari yetarli darajada o'tga chidamli bo'lgan maxsus xonalarda zina kataklarida quriladi. Binodagi zinalarning soni, joylashishi, o'lchamlari, qabul qilingan binoning arxitektura – tarxiy yechimiga, qavatlar soniga odamlar harakati oqimining shiddatiga (intensivligiga) bevosita bog'liq.

TOMLAR VA TOM QOPMALARI

Binoni ustki qismini tashqi muhitdan topmlar va yopma himoya qiladi. Tomlar shakli, nishablarining qanday qiyalikda bo'lishi, binoning tarxdagi o'lchamlariga va ko'rinishiga, tom yopmasining materialiga, suvni tushirish usuliga, iqlim sharoitiga, texnik-iqtisodiy sharoitlariga hamda bino arxitekturasiga oid mulohazalarga bog'liqdir. Tom va tom yopmalarning shakli bir nishabli va ikki nishabli bo'ladi. Shuningdek to'rt nishabli, gumbazsimon qubba, konussimon va boshqa xil tomlar ham bo'ladi.

Nishablarning bir-birini qiya holda kesib o'tishidan turtib chiqqan burchak qovurg'a (rebro) yoki ichkariga kirgan burchak yondova hosil qiladi. Bir tomning hamma nishablari, odatda, bir xil qiyalikda bo'lishi kerak.

Tom va tom yopmalarning shakli imkoniyat darajasida oddiy bo'lishi va imkon boricha yondovasiz bo'lishi kerak, chunki yondova tomning mustahkam qismi hisoblanadi va doimiy tekshirib, qarab turishni talab qiladi.

Tom va yopmalar tomlar nishablarining qiyaligi nishab qiyaligi bilan gorizont orasidagi uning gorizantal holatiga nisbati bilan, ya'ni protsentlarda (%) yoki kasrlarda ifodalangan qiyalik burchagining tangensi bilan o'lchanadi.

Tom va yopma tomlar qiyaligiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- qiyaligi 5 % va undan ortiq bo'lgan nishab tomlar;
- qiyaligi 0 dan 5 % gacha bo'lgan tekis tomlar.

Chordiqning balandligi uning ichida bema'lol yurish imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'rtacha 1,6 m dan kam bo'lishi mumkin emas. Hozirgi kunga kelib tom yarmalarining ham turli ekologik toza va chidamli turlari ishlab chiqarilmoqda.

Temir cherepitsa — varoq to'shama tunika ko'rinishdagi yupqa po'lat, aluminiy yoki misdan tayyorlangan, polimer bo'yoq qatlami bilan qoplangan, sovuq bosim yordamida maxsus ishlov berilgan (profillangan) tombop ashyo hisoblanadi. Po'latdan tayyorlangan cherepitsa qiyalik burchagi 14°ga teng bo'lgan sharoitda tom yopish uchun qo'llaniladi. Tom yopishning ushbu turidan -50°C dan Q50 °C gacha bo'lgan havo haroratida atrof muhitning zararsiz yoki kam zararli sharoitlarda foydalanish tavsiya etiladi.

Po'lat cherepitsaning umumiy og'irligi 1 mg hisobida taxminan 5 kg ni tashkil etadi (taqqoslash uchun: sopol - 38-40 kg, shifer - 10-15 kg).

Tarkibi kam uglerodli po'latdan tayyorlangan tunika varoq. Uning yuzasi elektroliz yo'li bilan yoki eritmaga solish usuli bilan ikkala tomondan simli himoyalovchi qatlam bilan qoplanadi, keyingi qatlam xomaki (gruntovka) himoyalovchi tabiiy qoplama bo'lib, uning ustidan rangli polimer surtiladi. Polimer qatlam deformatsiya bo'lganda egiluvchan va bardoshli bo'lishi lozim. Natijada po'lat cherepitsa zanglashga chidamli va rangning tiniqligi ta'minlanadi. Qoplamalar o'z xususiyatlari, qalinligi va narxlar bo'yicha farqlanadi. Eng keng tarqalgan qoplamalar quyidagilar qisoblanadi: poliester (RE qalinligi 25-30 mikron), poliuretan (Ri qalinligi 50 mikron) Ammo, mustahkam o'rnatilmagan po'lat cherepitsa yomg'ir va shamol paytida shovqin soladi. Buning uchun tom yopishda maxsus tovushni o'tkazmaydigan qoplama (odatda tovush o'tkazmaydigan qatlamni issiqni o'tkazmaydigan qatlam bilan birlashtirgan holdalar ishlatiladi.

ONDULIN - yapaloq shiferga nisbatan uzoq muddatda foydalanishga mo'ljallangan, 15 yil kafolati va 50 yil foydalanish muddatiga ega tombop ashyo. To'liqinsimon ONDULIN tarkibida sog'liq uchun zararli bo'lgan moddalar yo'q va u faqat ekologik toza ashyolardan tayyorlanadi. ONDULIN tombop ashyo sifatida turli iqlim sharoitlarida nihoyatda chidamli hisoblanadi. ONDULIN tarkibida tosh paxta, mineral bog'lovchilar yo'q, u oson kesiladi va mix qoqanda yorilmaydi dars ketmaydi

Ondulin chirimaydi, harorat -35°C dan 70°C gacha bo'lganda ham xossalari o'zgarmaydi. U kislotalar, ishqorlar va sanoat gazlarga nisbatan kimyoviy jihatdan bardoshli. Ondulin yengil, oson egiluvchan ashyo bo'lib, eski tombop materialning ustiga ham yopilishi mumkin. Mustahkamligi-60 kg sG`kv.m.

BADIIY-DIZAYN

BO'LIMI

Konsultant: Fomenko N.N

(F.I.SH., imzo)

Ma'sul rahbar: Vetlugina A

(F.I.SH., imzo)

Bitiruvchi: Yusupova Sh.B.

(F.I.SH., imzo)

Badiiy yechimi

Xalqo savdo- sotiq markazining interyer yechimini boshlashdan oldin ushbu mavzu yuzasidan ma'lumotlar to'plandi, savdo-sotiq markazlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilindi. Ishni boshlash davomida turli eskizlar tayyorlandi.

Xalqaro savdo markazimizning kirish qismi katta fayedan tashkil topkan bo'lib, pollari kafeldan, pataloklari gipsakartondan foydalanilgan. Mijozlar uchun ko'pkina o'rindiqlar bo'lib, o'rindiqlar atrofida xovuzchalar va tabiiy o'simliklardan foydalanilgan.



Mehmonxona qismida xonalar modern stilidan foydalanilgan. Mehmonxonaning ichki qismi pollari tarket, devorlari dekorativniy g'ishtlar, aboylar, patolok qismi gipsakarton, o'ristiklo yoritkichlardan foydalanilgan xamda xonaning ajratib turish maqsadida gipsakartondan ishlangan to'siq qo'yilgan va MDF eshiklaridan foydalanilgan. Qulaylikni oshirish maqsadida yumshoq mebellar bilan jixozlangan.



Restoran qismi yog'och materiallardan foydalanilgan. Pollari tarket, devorlari gipsakarton, kalonnalar yog'ochdan, to'siqlar MDFdan, patalok qismi dekorativniy taxtadan va sun'iy yoritkichlardan foydalanilgan. Restoran qismining badiiy dizayni tabiat uyg'unligiga moslashtirib nafis ranglardan yaratilgan.



Xalqaro savdo markazimizga tshrif buyurgan mexmonlar uchun madaniy xordiq maqsadida zamonaviy xovuz tashkil etilgan. Xovuzimizning yuqori qismi temir konstruksiya bo'lib, oralariga oyna va setka bilan ishlov berilgan. Pollari kafeldan. Xovuzimizning atrofiga mayolika kafellaridan terib chiqilgan. Devorlari namlikka chidamli gipsakartonlardan foydalanilgan. Bezak tariqasida dekorativ palma daraxtlari ekilgan.



Xalqaro savdo markazimizning birja qismiga alohida etibor berilgan. Birjaning maqsadi ochiq savdolari tashkil qilish va o'tkazish yo'li bilan birja tovarlari bilan savdo qilishga zaruriy sharoitlarni yaratish. Birja savdolarini tashkil qilish talab va taklif asosida birja tovarlari narxlarini shakillantirish yo'li bilan birja tovarlar bozorini yaratishdir.

Birja qismida yuqori qismi temir konstruksiya bo'lib, gipsakartondan bezak berilgan. Pollari kafeldan, devorlari esa gipsakartondan. Tovar oldi sotisini kuzatish maqsadida qo'shimcha monitorlar qo'yilgan.



Landshaft dizayn



Landshaft dizayni arxitektura-vizaynerlik obyektlarini loyihalashda ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy, ekologik, shaxarsozlik, estetik, millilik kabi qator omillarga amal qilgan xolda kompleks yondashishni taqazo qiladi.

Ushbu zamonaviy loyiha hududini obodonlashtirishda zamonaviy landshaft dizayni elementlaridan foydalanib, qiziqarli yechimlar ishlab chiqishga xarakat qilindi.

Binoyimiz hududida dekorativ hovuzlar tashkil etilib, bu hovuzlarning shakli nafaqat to'g'ri geometrik, umumiy kompozitsion yechim jixatdan tashqi ko'rinishi egiluvchan bo'lishi mumkin. Yon devorlari granit, oxaktosh, marmar, shuningdek keramik plitalar bilan qoplash mumkin. Kechki vaqtda dekorativ hovuzlarni turli tuman yorug'lik manbalari bilan yoritiladi. Shu bilan birga hovuz atrofida o'rindiqlar o'rnatilgan.

O'rindiqlar joylashtirish joyiga qaramasdan vazifasi, yana shuningdek shakli, o'lchovi, ishlatiladigan materiali va o'rindiqlarning rangi belgilanadi. Xar qanday o'rindiq, avvalambor foydalanishga qulay bo'lishi, shakli bo'yicha oddiy, ularning rangi esa-uzviy ravishda hududning umumiy rang yechimini to'ldirishi kerak.

Binoyimiz hududida kichik me'moriy shakllardan tashqari kichik xaykaltaroshlik elementlari ishlangan. Bu elementlar binoyimiz hududiga yanada zamonaviy ruhdagi ko'rinish berishga yordam beradi va estetik zavq bag'ishlaydi.

Landshaft obyektlarida dekorativ yoritish eng ko`p ahamiyatga egadir. Yaxshi bajarilgan dekorativ yoritish yordamida yaxshi ko`rinish effekti va katta hayajonli xarakatlariga erishish mumkin. O`simliklar va gullarning pastdan yoritilishidan foydalanib va yorug`likni masus qoplash bilan qiziq kechki senariyni yaratish mumkin. Demak, hududning landshaft yechimini isnlab chiqishda joyning zarur darajada yoritilishiga ham e`tibor qaratiladi.

Binoyimiz hududida moshinalar uchun alohida stayankalar ajratilgan bo`lib, bu staykalar savdo markazimizga tashrif buyurgan mexmonlarning mashinalari uchun qulay joy hisoblanadi.

ATROF MUHIT EKOLOGIYASI

BO'LIMI

Konsultant: Mirkomilov I.

(F.I.SH., imzo)

Bitiruvchi: Yusupova Sh. B

(F.I.SH., imzo)

ATROF- MUHIT EKOLOGIYASI

Bugungi toboro rivojlanib borayotgan dunyoda taraqqiyot bilan birga atrof – muhit , ekologiya buzulishi ham kuchayib bormoqda. Atrof – muhitni , ekologiyani asrab-avaylash uchun har bir bajarayotgan ishimizning atrof-muhitga zarar yetkazmasligiga e'tibor qaratishimiz lozim.

Agar tabiatga ziyon keltiradigan holatlar vujudga kelsa , bu holatni to'liq bartaraf etishimiz , to'liq bartaraf etish imkoni bo'lmaganda esa iloji boricha ziyonni kamaytirishimiz darkor. Zero tabiatga keltirayotgan har bir zararimiz ertaga o'zimizga keltirayotgan zararimizdir.

Atrof- muhit ekologiyasi hususida bosh qomusimizda ham ta'kidlab o'tilgan. "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlarlar."

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 50-modda)

Insonning tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanishi, sanoat, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi sababli tabiatga yetkazilgan zarar sayyoramizda ekologik muvozanatning buzilishi, iqlimning keskin o'zgarishi, turli kasalliklarning yuzaga kelishi, qurg'oqchilik, yer sathining cho'llanishi kabi global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday noxush holatlarning oldini olishda yosh avlodning ekologik bilimi va madaniyatini yuksaltirish, ularda ona tabiatga mehr va hurmat tuyg'ularini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi inson huquqi va erkinligiga amal qilish, ijtimoiy va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish orqali dunyo hamjamiyatiga to'la huquqli integratsiyalashishni ta'minlovchi huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi insonning barkamol rivojlanishi va farovon hayoti, shaxs manfaatlarini amalga oshirish sharoitlari hamda amaliy mexanizmlarini yaratishdan iboratdir.

Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to'laqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham ega

boʻlgan huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar eʼtirof etgan. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi.

Shuning uchun ham respublikamizda ekologiya xavfsizligi , atrof-muhit tozaligi , umuman olganda ekologik muammolarni oldini olishga qaratilgan bir qancha qonunlar joriy etildi.

Bular quyidagilar:

- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Atmosfera havosini muhofaza qilish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Ekologik ekspertiza toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Chiqindilar toʻgʻrisida”

Yuqorida koʻrib oʻtkanimizdek ekologiya, atrof-muhit tozaligi bu butun jahon muammosidir. Shunday ekan, har bir inson oʻz faoliyati davomida buni yodda tutishi va befarq boʻlmasligi lozim.

Jizzax iqlimi keskin kontinental. Yanvar oyining oʻrtacha temperaturasi 1,5 , minimum temperatura – 35 , iyulning oʻrtacha temperaturasi - 28,5 , maksimum temperatura - 46 . Togʻ oldilarida iqlim choʻl va dashtlarga nisbatan yumshoq. Yillik yogʻin viloyat janubida 400-500 mm, shimolida 250-300mm. Vegetatsiya davri 210-240 kun. Yillik quyoshlik kunlar 2800-3000 soat. Eng yirik daryolari – Sangzor, Zominsuv. Togʻlardan oqib tushuvchi soy koʻp. Ekinlarni sugʻorish

uchun Tuyatortar kanali, 1- va 2- Jan. Mirzacho'l kanallari, Jizzax, Zomin, Qorovultepa omborlari qurilgan.

Taklif sifatida berilayotgan ushbu loyiha ya'ni " Xalqaro savdo-sotiq markazi " atrof- muhitga zarar keltirmaydi. Atrofda kislorot miqdorini ko'paytirish shu bilan birga insonlarga estetik zavq berish uchun atrofda yashil hududlar tashkil etilgan, turli xildagi daraxtlar o'tqazilgan. Jizzax iqlim sharoiti issiq bo'lganligi sababli bu hududda yashil maydonlar , daraxtlar ko'paytirilgan. Bu hududdagi landshaftga , daraxtlarni ko'paytirish albatta maqsadga muvofiqdir.

Bino to'g'risida aytib o'tadigan bo'lsak, binoda faoliyat yuritadigan hodimlar uchun barcha qulayliklar yaratilgan, ya'ni hodimlar uchun maxsus xonalar, sanitareya xonalari tashkil etilgan.

Binodan chiqadigan chiqindilar uchun maxsus og'zi yopiq idishlar joriy qilingan, chiqindi oqava suvlari esa kanalizatsiya orqali markaziy kanalizatsiyaga yuboriladi.

Binoning qurilishida ham tabiiy materiallardan foydalanilgan. Masalan , g'isht, oyna kabi materiallardan.

Umumiy holda , aytadigan bo'lsak ushbu diplom loyihasida tabiatga , atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. “ Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo’llari va choralari” Toshkent “ O’zbekiston” nashiryoti 2009 y.
2. I.A.Karimov. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishiga xizmat etsin. “ Taffakur” jurnali 1998 y 2 son.
3. I.A.Karomiv. “ O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent “ O’zbekiston” nashiryoti, 1997 y.
4. Арх. Проектирование общественных зданий и сооружений. Москва. Стройиздт. 1985г.
5. К.М.К . 2.08.01-96 «Жамоат бинолари»
6. «Ландшафтный дизайн» Ростов-на – Дону. 2003г.
7. Н.Я.Крижанновская «Основы ландшафного дизайна» Ростов на Дону. 2005г.\
8. Б.Г.Бархин «Методика архитектурного проектирования» Москва. Стройиздт. 1982 г.
9. «Марказий Осиё муъморчилиги да интерьер» Тошкент. « Фан» нашириёти 2005 й.
- 10.В.И.Горячев, В.А. Неелов, Д.А. Нозимов «Кошинлаш ишлари» Тошкент. «Укитувчи» нашириёти. 1997 й.

Faye



Gastinsa



Restoran



Hovuz



Birja

